**URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**ATAMURATOVA MAFTUNA MUZAFAROVNA**

# O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI XALQAROLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

**Urganch-2026**

**UO‘K: 378.013:072.4(575.1)**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Atamuratova Maftuna Muzafarovna**
O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari faoliyatini xalqarolashtirishni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari.....3

**Атамуратова Мафтуна Музафаровна**
Педагогические условия совершенствования интернационализации деятельности высших образовательных учреждений Узбекистана.....23

**Atamuratova Maftuna Muzafarovna**
Pedagogical conditions for improving the internationalization of activities of higher educational institutions of Uzbekistan.....45

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**
**Список опубликованных работ**
**List of published works**.....49

**URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.01/2025.27.12.Ped.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**ATAMURATOVA MAFTUNA MUZAFAROVNA**

# O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARI FAOLIYATINI XALQAROLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI**

**Urganch-2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.PhD/Ped13214 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.urspi.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Xodjaniyazov Sardor Umarovich**<br>pedagogika fanlari doktori (DSc), professor |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Safayeva Muhabbat Saburovna**<br>pedagogika fanlari doktori (DSc), professor |
| | **Utebayev Tajibay Tileumuratovich**<br>pedagogika fanlari doktori (DSc), professor |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Guliston davlat pedagogika instituti** |

Dissertatsiya himoyasi Urganch davlat pedagogika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.01/2025.27.12.Ped.12.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "15" ____11____ kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220100, Urganch shahri, Gurlan ko'chasi, 1-A uy) Tel.:(99862)226-37-87, faks: (99862) 226-37-87, e-mail: study_info@urspi.uz.

Dissertatsiya matni bilan Urganch davlat pedagogika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 40 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220100, Urganch shahri, Gurlan ko'chasi, 1-A uy) Tel.: (99862) 226-37-87; faks: (99862) 226-37-87.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "12" 11 kuni tarqatildi.

(2026-yil "13" 11 dagi 40 - raqamli reyestr bayonnomasi)

**F.R. Madraximova**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), professor

**R.A. Latipov**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, p.f.f.d. (PhD), dotsent

**E.I. Ruziyev**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim muassasalari faoliyatini xalqarolashtirish asosida takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, akademik mobillik, ta’lim jarayoniga xalqaro va madaniyatlararo komponentlarni integratsiyalash hamda globallashuv sharoitida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. UNESCO tomonidan qabul qilingan “Ta’lim – 2030 / Inchxon deklaratsiyasi”da sifatli ta’lim barqaror rivojlanishning muhim omili sifatida belgilangan bo‘lib, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, zamonaviy ta’lim yondashuvlarini joriy etish va global akademik hamkorlikni rivojlantirish oliy ta’limni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida e’tirof etilgan. Oliy ta’lim muassasalarining xalqarolashtirish faoliyati takomillashtirilib, uni ta’lim jarayonida samarali amalga oshirishning didaktik mexanizmlari va shart-sharoitlari ishlab chiqilmoqda.

Dunyo ta’lim muassasalarida milliy o‘zlik va ta’lim an’analarini saqlagan holda jahon ta’lim makoniga integratsiyalashuv zarurati bilan bog‘liq oliy ta’limni xalqarolashtirish, xalqaro hamkorlik, akademik mobillik, qo‘shma ta’lim dasturlarini rivojlantirish hamda oliy ta’lim tizimlarini modernizatsiyalash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, mahalliy oliy ta’lim muassasalari faoliyatini xalqarolashtirishni takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda me’yoriy-huquqiy asoslarni yaratish, milliy oliy ta’lim tizimini jahon ta’lim makoniga integratsiyalash, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda: xorijiy universitetlarning filiallari ochilmoqda, akademik mobillik rivojlanmoqda, qo‘shma ta’lim dasturlari joriy etilmoqda. Inson kapitalini rivojlantirishning qo‘shma onlayn-platformasini yaratish taklif etilib, “eng chekka hududlarda ham yoshlarga zarur bilimlarni olish imkonini beradigan onlayn ta’lim xizmatlari sohadagi hamkorlikning samarali mexanizmi bo‘lishi mumkin”ligi, bunday platformaning vazifasi esa “ta’lim, kasbiy tayyorgarlik va mehnat bozorini o‘zaro bog‘lash”dan[1] iborat ekanligi ta’kidlangan. Bu esa, umuman olganda, ta’limni xalqarolashtirishning pedagogik imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktyabrdagi O‘RQ-576-son “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 25-fevraldagi PQ-4210-son “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o‘rnini

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Peterburg xalqaro iqtisodiy forumidagi nutqi, 2026-yil 5-iyun // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti.

yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan oliy ta’lim muassasalari faoliyatini xalqarolashtirishni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini tadqiq etish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, milliy oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashning ustuvor vazifalarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Respublikamiz olimlaridan S.U.Xodjaniyazov, Sh.R.Adilova, I.S.Bayjanov, D.X.Vaxabova, N.M.Ibragimova, U.V.Mannanov, A.G.Muminov, U.D.Pardayeva, M.A.Raxmatullayev, U.N.Tashkenbayev, O.T.Turdikulov, S.M.Yun kabi olimlar o‘z ilmiy ishlarida oliy ta’limni xalqarolashtirish masalalarini xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallarini rivojlantirish, qo‘shma ta’lim dasturlari, ta’lim markazini shakllantirish, raqamlashtirish hamda oliy ta’lim muassasalarining raqobatbardoshligi bilan bog‘liq holda tadqiq etganlar.

MDH mamlakatlari olimlaridan Ye.L.Andreyeva, A.L.Arefyev, V.I.Baydenko, A.A.Verbitskiy, A.N.Djurinskiy, Ya.I.Kuzminov, M.V.Larionova, O.V.Perfilyeva, V.M.Filippov, I.D.Frumin kabi olimlar oliy ta’limni xalqarolashtirish muammosini Rossiya va postsovet hududi kontekstida tadqiq etganlar.

Xorijlik olimlardan J.Knight, P.G.Altbach, R.Goodman, M.F.Green, E.Hazelkorn, F.Huang, E.Jones, B.M.Kehm, B.Leask, S.Marginson, K.H.Mok, G.Neave, L.E.Rumbley, J.Salmi, J.C.Shin, U.Teichler, M.van der Wende, H.de Wit, A.Yonezawa, Q.Zha kabi olimlar o‘z ilmiy ishlarida oliy ta’limni xalqarolashtirishning nazariy asoslari, akademik mobillik, transmilliy ta’lim, universitetlar reytinglari hamda ta’lim sifatini ta’minlash masalalarini tadqiq etganlar. Ushbu masalalar ARWU, QS, THE va OECD materiallarida ham yoritilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, “Urganch davlat universitetining 2017–2030-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish dasturi”ning 2.4-bandi asosida “Tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatni oshirish bo‘yicha kompleks harakatlar dasturi” (2022–2025-yillar) doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari faoliyatini xalqarolashtirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

oliy ta’lim muassasalarining xalqarolashuvini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

oliy ta’lim muassasalari faoliyatini xalqarolashtirish modelini takomillashtirish;

oliy ta’lim muassasalarining pedagogik faoliyatini xalqarolashtirish jarayonlarini takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqish;

oliy ta’lim muassasalarining pedagogik faoliyatini xalqarolashtirish jarayonlarining samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari faoliyatini xalqarolashtirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirish jarayoni bo‘lib, tajriba-sinov ishlariga Urganch davlat pedagogika instituti, O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti va Jizzax davlat pedagogika universitetining jami 324 nafar professor-o‘qituvchisi jalb etilgan.

**Tadqiqotning predmetini** O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari faoliyatini xalqarolashtirish uchun pedagogik shart-sharoitlarni takomillashtirishning shakllari, usullari va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida pedagogik, psixologik, metodik va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-tahliliy yondashuv, kuzatish, suhbat, so‘rovnoma, test, diagnostika, pedagogik tajriba-sinov ishlari, refleksiv tahlil, matematik-statistik metodlar hamda natijalarni grafik va jadval ko‘rinishida tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyatni xalqarolashtirishni takomillashtirishning milliy akademik an’analarni xalqaro ta’lim standartlari talablari bilan integratsiyalash, akademik mobillik va madaniyatlararo kompetensiyani jadallashtirish, shuningdek, ta’limning polimadaniylik, uzluksizlik va raqamlashtirish tamoyillariga asoslangan ta’lim muhitini yaratishni ta’minlovchi didaktik imkoniyatlari aniqlangan;

oliy ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyatni xalqarolashtirish modeli o‘zaro bog‘liq tarkibiy bloklarni raqamlashtirish sinergiyasi hamda oliy ta’lim muassasalarining xalqaro aloqalar bo‘limlarini o‘qituvchilarni pedagogik qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan adaptiv Welcome-markazlarga institutsional transformatsiya qilish asosida integratsiyalash, o‘qituvchilar pedagogik faoliyatini xalqarolashtirishning ekstensiv xususiyatdan intensiv xususiyatga o‘tishini hamda polimadaniy ta’lim muhitida bitiruvchilarning transprofessional kompetensiyalarini shakllantirishni ta’minlash orqali takomillashtirilgan;

xalqarolashtirish jarayonlari oliy ta’lim muassasalari pedagogik faoliyatini diagnostik, mazmuniy-faoliyatli va refleksiv-baholash bosqichlari asosida loyihalashtirish, raqamli ta’lim resurslari va tarmoq hamkorligini integratsiyalash hamda barqaror xalqaro e’tirof asosida oliy ta’lim muassasasining yaxlit polimadaniy ta’lim ekotizimini shakllantirishni ta’minlash orqali takomillashtirilgan;

oliy ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyatni xalqarolashtirish jarayonlarining samaradorligi motivatsion-qadriyatli, kognitiv va faoliyatli-amaliy mezonlarni o‘z ichiga oluvchi mezonli-baholash majmuasini ishlab chiqish, taklif etilgan pedagogik shart-sharoitlarning validligini matematik statistika metodlari asosida asoslash hamda o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining quyi darajadan yuqori darajaga o‘tish dinamikasini aniqlash orqali belgilangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagicha:**

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining xalqarolashtirilgan pedagogik faoliyatini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari, metodlari, shakllari va mexanizmlari ishlab chiqilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan;

oliy ta’lim muassasalari faoliyatini xalqarolashtirish jarayonlarining samaradorligiga ta’sir etuvchi tashkiliy-pedagogik omillar aniqlangan;

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari faoliyatini xalqarolashtirishni takomillashtirishning tuzilmaviy-funksional modeli ishlab chiqilib, uni amalga oshirish mexanizmlari, shuningdek, o‘qituvchilarning xalqarolashtirilgan pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorligini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari belgilangan;

oliy ta’lim muassasalari faoliyatini xalqarolashtirishni takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar “Umumiy pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi orqali ta’lim jarayoniga joriy etilgan hamda pedagogik sikldagi tegishli fanlarni o‘rganishda foydalanilmoqda (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-son buyrug‘i asosida berilgan 438515-raqamli nashr ruxsatnomasi).

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va asosliligi** pedagogikaning zamonaviy nazariy-metodologik qoidalariga hamda oliy ta’limni xalqarolashtirish sohasidagi yetakchi respublika va xorijiy olimlarning ilmiy ishlariga tayanilgani, tadqiqot maqsadi va vazifalariga mos metodlar majmuasi qo‘llanilgani, tajriba-sinov ishlarida tanlanmaning reprezentativligi, olingan ma’lumotlarning matematik statistika metodlari yordamida qayta ishlangani hamda tadqiqot natijalarining ta’lim amaliyotiga joriy etilgani va bu vakolatli organlarning ma’lumotnomalari bilan tasdiqlangani bilan ta’minlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta’lim muassasalari pedagogik faoliyatini xalqarolashtirishning nazariy asoslari aniqlashtirilganligi, uni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlanib, asoslab berilganligi, xalqarolashtirish jarayonlarini amalga oshirishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari ishlab chiqilganligi hamda oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining xalqarolashtirilgan pedagogik faoliyatini takomillashtirishning tuzilmaviy-funksional modeli yaratilganligida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati oliy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining xalqarolashtirilgan pedagogik faoliyatini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari, metodlari, shakllari va mexanizmlari ishlab chiqilganligi, uni amalga oshirishning tuzilmaviy-funksional modeli yaratilganligi, o‘qituvchilarning

xalqarolashtirilgan pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik darajasini aniqlashning mezonli-baholash majmuasi ishlab chiqilganligi hamda tadqiqot natijalarini ta’lim amaliyotiga joriy etish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar tayyorlanganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy etilishi.**

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari faoliyatini xalqarolashtirishni takomillashtirishga oid tadqiqot natijalari asosida:

O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyatni xalqarolashtirishni takomillashtirishning milliy akademik an’analarni xalqaro ta’lim standartlari talablari bilan integratsiyalash, akademik mobillik va madaniyatlararo kompetensiyani jadallashtirish, shuningdek, ta’limning polimadaniylik, uzluksizlik va raqamlashtirish tamoyillariga asoslangan ta’lim muhitini yaratishni ta’minlovchi didaktik imkoniyatlarini aniqlashga oid takliflar “Umumiy pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-son buyrug‘i asosida berilgan 438515-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada oliy ta’lim muassasasida polimadaniy, raqamli va uzluksiz ta’lim muhitini shakllantirish imkoniyatlari yaratilgan.

oliy ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyatni xalqarolashtirish modelini o‘zaro bog‘liq tarkibiy bloklarni raqamlashtirish sinergiyasi hamda oliy ta’lim muassasalarining xalqaro aloqalar bo‘limlarini o‘qituvchilarni pedagogik qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan adaptiv Welcome-markazlarga institutsional transformatsiya qilish asosida integratsiyalash, o‘qituvchilar pedagogik faoliyatini xalqarolashtirishning ekstensiv xususiyatdan intensiv xususiyatga o‘tishini hamda polimadaniy ta’lim muhitida bitiruvchilarning transprofessional kompetensiyalarini shakllantirishni ta’minlash orqali takomillashtirishga oid takliflar “Umumiy pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-son buyrug‘i asosida berilgan 438515-raqamli nashr ruxsatnomasi).Natijada o‘qituvchilar pedagogik faoliyatini xalqarolashtirishning ekstensiv xususiyatdan intensiv xususiyatga o‘tishi ta’minlangan.

xalqarolashtirish jarayonlarini oliy ta’lim muassasalari pedagogik faoliyatini diagnostik, mazmuniy-faoliyatli va refleksiv-baholash bosqichlari asosida loyihalashtirish, raqamli ta’lim resurslari va tarmoq hamkorligini integratsiyalash hamda barqaror xalqaro e’tirof asosida oliy ta’lim muassasasining yaxlit polimadaniy ta’lim ekotizimini shakllantirishni ta’minlash orqali takomillashtirishga oid takliflar “Umumiy pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-son buyrug‘i asosida berilgan 438515-raqamli nashr ruxsatnomasi).Natijada oliy ta’lim muassasasining yaxlit polimadaniy ta’lim muhitini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

oliy ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyatni xalqarolashtirish

jarayonlarining samaradorligini motivatsion-qadriyatli, kognitiv va faoliyatli-amaliy mezonlarni o‘z ichiga oluvchi mezonli-baholash majmuasini ishlab chiqish, taklif etilgan pedagogik shart-sharoitlarning validligini matematik statistika metodlari asosida asoslash hamda o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligining quyi darajadan yuqori darajaga o‘tish dinamikasini aniqlash orqali belgilashga oid takliflar “Umumiy pedagogika” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-son buyrug‘i asosida berilgan 438515-raqamli nashr ruxsatnomasi).Natijada o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi quyi darajadan yuqori darajaga o‘tishini baholash mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot ishining mazmuni, g‘oyalari va natijalari 4 ta, jumladan, 2 tasi xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, shundan 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 150 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va usullari aniqlangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta’lim faoliyatini xalqarolashtirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida oliy ta’lim kontekstida xalqarolashtirish tushunchasi, uning mohiyati va o‘rganilganlik darajasi, oliy ta’lim muassasalari faoliyatini xalqarolashtirishning respublika va xorijiy tajribasi hamda oliy ta’lim muassasalari faoliyatini xalqarolashtirishni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilingan.

Globallashuv sharoitida oliy ta’lim jamiyatning intellektual va innovatsion rivojlanishining asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Shu munosabat bilan milliy oliy ta’lim tizimlarining raqobatbardoshligini oshirish va ularni jahon ta’lim makoniga integratsiyalash sharti sifatida qaraladigan oliy ta’lim muassasalari

faoliyatini xalqarolashtirish alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Shuningdek, mazkur jarayonni oliy ta’lim rivojlanishining muhim omili sifatida e’tirof etuvchi xalqaro tashkilotlarning tahlil qilingan tahlil qilingan. UNESCO materiallarida xalqarolashtirish oliy ta’lim sifatini oshirish, ilmiy hamkorlikni rivojlantirish va universitetlarni global ta’lim makoniga integratsiyalashning zarur mexanizmi sifatida tavsiflanadi. OECD universitetlarning xalqaro ochiqligi mutaxassislar tayyorlash sifatiga, innovatsion rivojlanishga hamda oliy ta’lim muassasalarining jahon oliy ta’lim tizimidagi mavqeiga ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi.

Xalqarolashtirish jahon oliy ta’lim tizimi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi, biroq uning zamonaviy shakllari va mexanizmlari ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlar ta’sirida tarixan shakllangan. Bu uning paydo bo‘lishi va evolyutsiyasini tahlil qilish, shuningdek, ilmiy adabiyotlarda keltirilgan oliy ta’limni xalqarolashtirishni tushunishga oid yondashuvlarni qiyoslash zaruratini yuzaga keltirdi.

J.Knight xalqarolashtirishni xalqaro, madaniyatlararo va global o‘lchovlarni oliy ta’lim muassasasining maqsad va funksiyalariga maqsadli ravishda integratsiyalash sifatida ta’riflaydi, H.de Wit esa u milliy kontekstga moslashtirilgan tizimli strategiyani talab qilishini ta’kidlaydi. S.Marginson, U.Teichler, M.van der Wende, R.Deem, G.Neave va B.M.Kehm xalqarolashtirishni oliy ta’lim muassasasini boshqarish, ta’lim siyosati va akademik madaniyatni qamrab oluvchi jarayon sifatida ko‘rib chiqadilar; J.Salmi uni jahon darajasidagi universitetlarni shakllantirish bilan, E.Hazelkorn esa global reytinglarning ta’siri bilan bog‘laydi. P.G.Altbach, J.Kenway va R.Naidoo xalqarolashtirishni ta’limni tijoratlashtirish va global bozordagi raqobat kontekstida tahlil qiladilar, A.Wiseman, B.Leask, M.F.Green, L.E.Rumbley va E.Jones esa xalqaro va madaniyatlararo komponentlarni o‘quv dasturlari hamda o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga integratsiyalashga alohida e’tibor qaratadilar.

Osiyo mamlakatlari olimlari, jumladan, Q.Zha, F.Huang, R.Goodman, M.N.N.Lee, A.Yonezawa, K.H.Mok, J.C.Shin, K.Okano va R.Yangning tadqiqotlari xalqarolashtirishning milliy modellari global standartlarni mamlakatlarning madaniy o‘zligini saqlash bilan uyg‘unlashtirishga asoslanishini ko‘rsatadi.

Rossiya olimlari A.Ye.Volkov, Ya.I.Kuzminov, I.M.Remorenko, B.L.Rudnik, I.D.Frumin, L.I.Yakobson, V.M.Filippov, M.V.Larionova, O.V.Perfilyeva, A.N.Djurinskiy, N.S.Ladijets, A.L.Arefyev va Ye.L.Andreyevalarning ilmiy ishlarida xalqarolashtirish universitetlarni modernizatsiyalash va akademik mobillikni rivojlantirish omili sifatida ochib berilgan.

Respublikamiz tadqiqotchilari O.T.Turdikulov, S.M.Yun, N.M.Ibragimova, D.X.Vaxabova, U.V.Mannanov, U.N.Tashkenbayev, U.D.Pardayeva va I.S.Bayjanov xalqarolashtirishni O‘zbekiston oliy ta’limining jahon ta’lim makoniga integratsiyalashuvini va mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishni ta’minlovchi davlat siyosati yo‘nalishi sifatida ko‘rib chiqadilar.

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy fanda xalqarolashtirishni anglashning salmoqli institutsional, strategik va ijtimoiy-madaniy tajribasi to‘plangan bo‘lib, u xalqarolashtirishni o‘qituvchining pedagogik faoliyati darajasida o‘rganish uchun nazariy asos yaratadi.

Shu o‘rinda “oliy ta’lim muassasalari faoliyatini xalqarolashtirish” tushunchasiga mualliflik ta’rifini keltiramiz. *Oliy ta’lim muassasalari faoliyatini xalqarolashtirish* – bu ta’lim sifatini oshirish va xalqaro ta’lim makoniga integratsiyalashgan muhitni shakllantirishga yo‘naltirilgan, xalqaro va madaniyatlararo komponentlarni oliy ta’lim muassasalarining ta’limiy, ilmiy va tashkiliy-pedagogik faoliyatiga integratsiyalash jarayonidir.

Pedagogik faoliyat darajasida xalqarolashtirish xalqaro va madaniyatlararo komponentlarni oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi faoliyatining mazmuni, metodlari va tashkil etilishiga kiritishni nazarda tutadi, bu esa ta’lim oluvchilarning madaniyatlararo kompetentligi hamda xalqaro akademik hamkorlikka tayyorligini rivojlantirishni ta’minlaydi. Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalari faoliyatini xalqarolashtirishni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, ularni milliy oliy ta’lim tizimiga moslashtirish va amaliyotga tatbiq etish samaradorligini baholash masalalari yanada rivojlantirishni talab etadi.

Tadqiqot davomida jahon amaliyotida oliy ta’limni xalqarolashtirishning uchta asosiy modeli shakllanganligi aniqlandi: Boloniya jarayoni va ECTS tizimi doirasida akademik integratsiya va ta’lim dasturlarining qiyoslanuvchanligiga asoslangan Yevropa modeli; oliy ta’lim muassasalarining bozor raqobati va xorijiy iqtidorlarni jalb etishga yo‘naltirilgan Amerika modeli; davlat muvofiqlashtiruvini universitetlarni jahon darajasiga olib chiqish uchun keng ko‘lamli qo‘llab-quvvatlash bilan uyg‘unlashtiruvchi Sharqiy Osiyo modeli. AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy, Janubiy Koreya va Singapur tajribasining qiyosiy tahlili ushbu modellarni amalga oshirish vositalarini hamda ularning strategiyalar, mobillik, o‘qitish tili, ilmiy hamkorlik va moliyalashtirish bo‘yicha o‘ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini berdi. Rossiya Federatsiyasi oliy ta’limni xalqarolashtirishni YeOII, BRIKS va ShHT mamlakatlari bilan muvozanatli mobillikni rivojlantirishga qayta yo‘naltirayotgani ko‘rsatildi; bu ta’lim an’analarining umumiyligini hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston oliy ta’limini xalqarolashtirish tizimli, ko‘p darajali va institutsional jihatdan diversifikatsiyalashgan tus olganligi aniqlandi. U xorijiy oliy ta’lim muassasalarining filiallari, xalqaro qo‘shma va nodavlat xalqaro universitetlar, respublika oliy ta’lim muassasalarining xorijdagi vakolatxonalari va dasturlari hamda ikki diplomli ta’lim dasturlari orqali amalga oshirilmoqda. Bunda xorijiy oliy ta’lim muassasalari filiallarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi ta’lim muassasalariga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston pedagogika oliy ta’lim muassasalarida pedagogik faoliyatni xalqarolashtirishning zamonaviy yo‘nalishlari tahlili ushbu jarayonning shakllarini va uning o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatiga ta’sirini aniqlash imkonini berdi.

Respublikaning xalqaro ta’lim mobilligi va akademik hamkorlik ko‘rsatkichlari tahlili O‘zbekistonda tahsil olayotgan xorijiy fuqarolar sonining o‘sishini, ular keladigan asosiy mamlakatlarni hamda xalqarolashtirishning yetakchi mexanizmlarini qayd etdi.

Xorijiy va respublika ilmiy adabiyotlari tahlili asosida oliy ta’lim muassasalari faoliyatini samarali xalqarolashtirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlanib, tizimlashtirildi. Ular o‘quv fanlarining mazmuni va tashkil etilishini, ta’lim jarayoni ishtirokchilarining til va madaniyatlararo tayyorgarligini, o‘qituvchining kasbiy rivojlanishini, hamkorlikning raqamli formatlarini hamda xalqarolashtirishni baholash va uning sifatini ta’minlash mexanizmlarini qamrab oladi. Mazkur shart-sharoitlar o‘zaro bog‘liq bo‘lib, birgalikda xalqarolashtirishning miqdoriy ko‘rsatkichlaridan oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi kasbiy faoliyatining mazmuniy transformatsiyasiga o‘tishga xizmat qilishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari pedagogik faoliyatini xalqarolashtirishni takomillashtirishning joriy holati”** deb nomlangan ikkinchi bobida oliy ta’lim tizimini xalqarolashtirish sohasidagi me’yoriy-huquqiy baza, oliy ta’lim muassasalari pedagogik faoliyatini xalqarolashtirish jarayonini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari va strategiyalari ko‘rib chiqilgan hamda O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari pedagogik faoliyatini xalqarolashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini amalga oshirish modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqot doirasida O‘zbekiston Respublikasining oliy ta’lim sohasidagi qonunchilik, me’yoriy-huquqiy va strategik hujjatlari tahlil qilindi. Xususan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunda oliy ta’lim muassasalarining akademik mustaqilligi va xalqaro hamkorlik huquqi mustahkamlangan bo‘lsa, “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi Qonun ilmiy faoliyat natijadorligini oshirish va xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirishning huquqiy asoslarini belgilaydi. Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi va “O‘zbekiston–2030” strategiyasida ta’lim sifatini oshirish, kredit-modul tizimiga o‘tish hamda oliy ta’lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi o‘rnini mustahkamlash ustuvor vazifa sifatida qo‘yilgan. Ushbu yo‘nalishlar Prezident qarorlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan aniqlashtirilib, oliy ta’lim muassasalari faoliyatini baholashda xalqaro mezonlarni qo‘llash va ta’lim jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish tartibi belgilangan. Mazkur hujjatlar oliy ta’lim muassasalarining akademik erkinligini kengaytirishi, ularning ilmiy faolligi, akademik mobillik va xorijiy hamkorlar bilan hamkorlikni rag‘batlantirishi ko‘rsatildi. Dual yondashuv asosida tahlil qilingan me’yoriy-huquqiy baza pedagogik faoliyatni xalqarolashtirish uchun zarur zamin yaratishi hamda o‘qituvchining kasbiy o‘sish zonalarini belgilashi aniqlandi.

Akademik erkinlikning kengayishi ta’lim dasturlarini mustaqil loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi; ilmiy samaradorlik va nashr faolligining oshishi o‘qituvchi vaqtini oqilona taqsimlash vazifasini dolzarb qilib qo‘yadi; raqamlashtirish va sifatning tashqi auditi professor-o‘qituvchilar

tarkibining raqamli kompetentlik darajasidagi tafovutlarni bartaraf etish hamda hujjatlar bilan bog‘liq yuklamani optimallashtirish zaruratini yuzaga keltiradi; kredit-modul tizimi sharoitida xorijiy hamkorlar va polimadaniy talabalar kontingenti bilan ishlash o‘qituvchining madaniyatlararo, til va baholash kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan talablar o‘qituvchi oldiga nafaqat yangi imkoniyatlar, balki muayyan kasbiy vazifalarni ham qo‘yadi, bu esa ularni hal etishning pedagogik shart-sharoitlarini asoslash zaruratini yuzaga keltiradi.

Dissertatsiyaning birinchi bobida aniqlangan pedagogik shart-sharoitlar bilan muvofiqlashtirilgan oliy ta’lim muassasalari pedagogik faoliyatini xalqarolashtirishni takomillashtirishning innovatsion strategiyalari asoslab berildi.

O‘quv fanlari mazmunini xalqarolashtirish milliy akademik an’analarni xalqaro ta’lim standartlari bilan integratsiyalashni, madaniyatlararo kompetensiyani hamda ta’lim natijalarining xalqaro deskriptorlariga muvofiq ingliz tilidagi ta’lim muhitini shakllantirishni ta’minlaydi. Mazkur strategiya o‘qituvchi va talabaning jismoniy mobilligini talab qilmaydi hamda kundalik auditoriya mashg‘ulotlarida ma’ruzalar mavzularini yangilash, madaniyatlararo misollardan foydalanish va ta’lim natijalarini ECTS talablari asosida shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

Xorijiy hamkasblar bilan birgalikda o‘qitishda madaniyatlararo fasilitatsiya o‘qituvchida lingvistik, didaktik va madaniyatlararo vositachilik ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda majburiy xorijiy stajirovkasiz kafedra ichida didaktik usullarning ommalashishiga xizmat qiladi. Reyting ko‘rsatkichlariga emas, pedagogik maqsadlarga qayta yo‘naltirilgan akademik mobillik xorijiy stajirovkadan didaktik usullarni maqsadli o‘zlashtirish va transprofessional kompetensiyalarni shakllantirish vositasi sifatida foydalanish imkonini beradi; u metodik qiyinchiliklar diagnostikasi, stajirovkaning o‘zi va qaytgandan keyingi refleksiv sessiyani o‘z ichiga oladi. Stipendiya mexanizmlari va institutsional hamkorlik axborot berish, nomzodlarni tanlash va stipendiatlarni keyinchalik kafedraning metodik ishiga jalb etish orqali xalqaro tajribaga ega o‘qituvchilardan iborat kadrlar salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Strategiyalar orasida o‘qituvchining uzluksiz kasbiy rivojlanish ekotizimi alohida o‘rin tutadi: u yuqoridagi to‘rt strategiyani yagona tizimga birlashtiruvchi asosiy bo‘g‘in vazifasini bajaradi. Oliy ta’lim muassasasi ichida tashkil etiladigan metodik seminarlar, ilmiy maqolalarni nashr etishda ko‘maklashish hamda pedagogik refleksiya madaniyatini rivojlantirish orqali ekotizim ushbu strategiyalarning motivatsion, metodik va psixologik asosini ta’minlaydi. Busiz qolgan strategiyalarni amalga oshirish rasmiyatchilik tusini olishi mumkin.

Strategiyalar uch bosqichda amalga oshiriladi: diagnostik, mazmuniy-faoliyatli va refleksiv-baholash. Ular raqamli ta’lim resurslari hamda oliy ta’lim muassasasining xorijiy tashkilotlar bilan tarmoq hamkorligini integratsiyalashni ta’minlaydi va oliy ta’lim muassasasining barqaror xalqaro e’tirofiga yo‘naltirilgan yaxlit polimadaniy ta’lim muhitini shakllantirishga qaratilgan.

Me’yoriy-huquqiy baza va innovatsion strategiyalar tahlili respublikada

xalqarolashtirishning rivojlangan institutsional infratuzilmasi shakllanganini, biroq uning samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligiga bog‘liq ekanini va bu yaxlit pedagogik ta’minotni talab etishini ko‘rsatdi. Birinchi bobda jahon tajribasi tahlilidan kelib chiqqan pedagogik shart-sharoitlardan farqli ravishda, ishlab chiqilgan model O‘zbekistonning institutsional o‘ziga xosligini hisobga oladi hamda pedagogik faoliyatni xalqarolashtirishning maqsadlari, mazmuni, tashkiliy shakllari va natijalar diagnostikasini o‘zaro bog‘laydi.


Oliy ta’lim muassasalari pedagogik faoliyatini xalqarolashtirish modeli takomillashtirildi; u o‘zaro bog‘liq beshta blokni o‘z ichiga oladi: maqsadli, metodologik, mazmuniy, protsessual va natijaviy.

Maqsadli blok davlat va oliy ta’lim muassasasining ijtimoiy buyurtmasini mobillik va nashr faolligi ko‘rsatkichlarining o‘sishiga emas, balki o‘qituvchi kasbiy amaliyotining (uning mazmuni, metodlari va kasbiy tafakkurining) sifat jihatidan transformatsiyasiga yo‘naltiradi. Modelning metodologik asosini beshta beshtatamoyil va amalga oshirishning uch bosqichida (diagnostik, amalga oshirish va baholash) aniqlashtirilgan tizimli, faoliyatli va kompetensiyaviy yondashuvlar tashkil etadi.

Modelning mazmuniy va protsessual o‘zagini oliy ta’lim muassasalarining xalqaro bo‘limlarini o‘qituvchini pedagogik qo‘llab-quvvatlovchi Welcome-markazlarga aylantirish tashkil etadi; bu uning faoliyatini xalqarolashtirishning ekstensiv shakldan intensiv shaklga o‘tishini ta’minlaydi. Mazkur o‘zak o‘qituvchi kasbiy faoliyatining uchta sohasini qamrab oladi: xalqaro ta’lim standartlarini o‘zlashtirish, madaniyatlararo kommunikatsiya va xalqaro ta’lim dasturlarida ishtirok etish. Ushbu sohalar davlat, oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi va muassasa ichidagi darajalarda amalga oshiriladi.

Modelning natijaviy bloki o‘qituvchilarning xalqarolashtirilgan pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorligini baholashga xizmat qiladi. Tayyorlik darajasi motivatsion-qadriyatli, kognitiv va faoliyatli-amaliy mezonlar asosida aniqlanadi: motivatsion-qadriyatli mezon o‘qituvchining xalqaro hamkorlikka qiziqishi va uni kasbiy qadriyat sifatida qabul qilishini, kognitiv mezon xalqaro ta’lim standartlari va madaniyatlararo kommunikatsiya haqidagi bilimlarini, faoliyatli-amaliy mezon esa ushbu bilimlarni o‘quv jarayonida qo‘llay olishini ifodalaydi.

Mazkur mezonlar asosida o‘qituvchilar kasbiy tayyorgarligining quyi, o‘rta va yuqori darajalari belgilanib, model samaradorligi ularning bir darajadan ikkinchisiga o‘tish dinamikasi orqali baholanadi (1-rasmga qarang).




**1-rasm. O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalari pedagogik faoliyatini xalqarolashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini amalga oshirish modeli.**

Ishlab chiqilgan model xalqaro va madaniyatlararo komponentlarni professor-o‘qituvchilar tarkibining pedagogik faoliyatiga tizimli integratsiyalashni ta’minlaydi, xalqarolashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini amalga oshirish uchun asos yaratadi hamda tajriba-sinov ishlarining nazariy bazasi bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta’lim muassasalari pedagogik faoliyatini xalqarolashtirish jarayonini takomillashtirish bo‘yicha tajriba-sinov ishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish, oliy ta’lim muassasalari pedagogik faoliyatini xalqarolashtirish darajasini aniqlash mezonlari, pedagogik tajriba natijalarining matematik-statistik tahlili va talqini yoritilgan.

Tajriba-sinov ishlarining maqsadi tadqiqotda asoslangan pedagogik shart-sharoitlar ta’sirida professor-o‘qituvchilar tarkibining xalqarolashtirilgan pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorgarligi dinamikasini aniqlash hamda erishilgan o‘zgarishlarning barqarorligini nazorat guruhlari bilan qiyoslab baholashdan iborat bo‘ldi.

Qo‘yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal etildi:

o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatni xalqarolashtirishga tayyorligining dastlabki darajasini diagnostika qilish;

pedagogik faoliyatda xalqaro komponentni amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi to‘siqlar hamda asosiy kasbiy o‘sish zonalarini aniqlash;

oliy ta’lim muassasalari faoliyatini xalqarolashtirishni takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini amalga oshirish dasturini ishlab chiqish va tajriba guruhlarida joriy etish;

tajriba va nazorat guruhlari natijalarini qiyosiy tahlil qilish orqali dastur samaradorligini tekshirish;

